



## KREDITLASH JARAYONIDA GAROV QIYMATINI BAHOLASH TIZIMI

**Turayeva Gulizahro**

*Guliston davlat universiteti dotsenti*

**G'aybullayeva Farzona**

**Aziza Xayrullayeva**

*Guliston davlat universiteti talabalari*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kreditlash jarayonida garov baholash tizimining iqtisodiy ahamiyati, bank xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni hamda uning zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Garov ob'ektlarini baholashda qo'llaniladigan asosiy yondashuvlar va ularning amaliy natijalari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda garov reyestrining elektron shaklda joriy etilishi hamda bu tizimning kredit risklarini kamaytirishdagi samarasi ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** garov, baholash, kredit, tizim, barqarorlik, xavf, likvidlik, bank.

**Аннотация.** В данной статье анализируется экономическое значение системы оценки залогового обеспечения в процессе кредитования, ее роль в обеспечении банковской безопасности и современные тенденции ее развития. Осветлены основные подходы, используемые при оценке залогового обеспечения, и их практические результаты. Также показано внедрение электронного реестра залогового обеспечения в Узбекистане и эффективность этой системы в снижении кредитных рисков.

**Ключевые слова:** залоговое обеспечение, оценка, кредит, система, стабильность, риск, ликвидность, банк.

**Annotation.** This article analyzes the economic significance of the collateral valuation system in the lending process, its role in ensuring bank security, and its modern development trends. The main approaches used in the valuation of collateral and their practical results are highlighted. The introduction of an electronic collateral registry in Uzbekistan and the effectiveness of this system in reducing credit risks are also shown.

**Key words:** collateral, valuation, credit, system, stability, risk, liquidity, bank.

### KIRISH

Kreditlash jarayonida garov baholash tizimi: Bank tizimida kreditlash iqtisodiyotning eng muhim moliyaviy mexanizmlaridan biri bo'lib, u ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Kredit berish jarayonida bank uchun eng katta xavf bu – qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilmasligi hisoblanadi. Shu bois, kreditni ta'minlash vositalari, xususan garov tizimi bank xavfini kamaytirishda muhim o'rin tutadi. Garov baholash tizimi kreditni ta'minlash jarayonida taqdim etilayotgan mol-mulk, ko'chmas yoki ko'char aktivlarning qiymatini aniqlashga qaratilgan murakkab, ammo zarur jarayondir.


Garov qiymatini aniqlashda bir qator iqtisodiy, huquqiy va moliyaviy omillar hisobga olinadi. Baholovchi tashkilotlar obyektдан foydalanish muddati, uning bozordagi holati, joylashuvi, eskirganlik darajasi va likvidligi kabi ko'rsatkichlarni tahlil qilib, garovning real bozor qiymatini aniqlaydi. O'z navbatida, bank ushbu qiymat



asosida kredit summasini, foiz stavkasini va qaytarish muddatini belgilaydi. Garov qiymatining haddan tashqari past yoki yuqori baholanishi bank faoliyatida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, shu sababli baholash jarayonida xolislik va aniqlik tamoyillariga qat'iy rioya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda garov baholash tizimi tubdan takomillashtirilmoqda. Banklar faoliyatida elektron garov reyestri joriy etilib, unda barcha garov ob'ektlari bo'yicha ma'lumotlar markazlashtirilgan holda saqlanmoqda. Bu tizim kredit ta'minotida shaffoflikni oshirish, garovlarning bir necha marotaba taqdim etilishini oldini olish hamda banklar o'rtasida ma'lumot almashinuvini soddalashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, baholovchi tashkilotlar faoliyati qonunchilik asosida tartibga solinib, ularning mas'uliyati, huquqlari va majburiyatlari aniq belgilab qo'yilgan.

O'zbekistonda kreditlash hajmining o'sish dinamikasi (2023–2025)



***1-rasm. O'zbekiston bank tizimida kreditlash hajmining o'sish tendensiyasi<sup>1</sup>***

Diagrammada 2023–2025-yillar oralig'ida O'zbekiston bank tizimida kreditlash hajmining o'sish tendensiyasi aniq ko'rinmoqda. Grafik chizig'idan ko'rinadiki, umumiy kredit portfeli 2023-yilda 442 ming milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 509 ming milliard so'mgacha oshgan. 2025-yil boshiga kelib esa kredit portfeli 533 ming milliard so'mga yetib, so'nggi yillarda barqaror o'sish dinamikasini saqlab qolgan. Shu bilan birga, ipoteka kreditlari hajmi ham izchil ravishda ortib borgan. 2023-yilda 53,5 ming milliard so'm bo'lgan ipoteka kreditlari

<sup>1</sup> Manba: <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats>



2024-yilda 63,7 ming milliard soʻmni, 2025-yilda esa 70 ming milliard soʻmni tashkil etgan. Bu, aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga boʻlgan ehtiyozi ortib borayotganini hamda ipoteka kreditlari banklar kredit portfelida muhim oʻrin egallayotganini koʻrsatadi.

## XULOSA

Umuman olganda, diagrammadagi chiziqlar yuqoriga qarab harakatlanayotgani mamlakatda kreditlash hajmining yildan-yilga kengayib borayotganini, banklarning iqtisodiyotdagi moliyalashtirish faoliyati kuchayganini va aholining kredit resurslariga boʻlgan ishonchi ortib borayotganini ifodalaydi. Shu bilan birga, oʻsish surʼatlarining 2025-yilda yanada tezlashgani bank tizimining barqarorligi va raqamlashtirish jarayonlarining samarali kechayotganidan dalolat beradi. Oʻzbekiston bank tizimida soʻnggi yillarda kreditlash hajmlarining ortib borishi garov taʼminoti tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Bank kreditining ishonchliligi koʻp jihatdan garov baholashning toʻgʻriligiga bogʻliq boʻlib, bu jarayon nafaqat bank, balki iqtisodiyotning umumiy barqarorligiga ham bevosita taʼsir koʻrsatadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining kredit portfeli toʻgʻrisidagi statistic hisobotlar (2023–2025-yillar). — <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats>
2. Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni “Baholash faoliyati toʻgʻrisida”. — Toshkent: Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 2019-yil.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki. “Tijorat banklarida kreditlash jarayonini tashkil etish toʻgʻrisida” yoʻriqnoma, 2019-yil 15-mart.
4. Jahon banki (World Bank). Domestic Credit to Private Sector (% of GDP). — <https://data.worldbank.org/indicator/FD.AST.PRVT.GD.ZS?locations=UZ>